

GUL UZUK

Bir borakan bir yo‘q ekan, qadim zamonda bir kambag‘al chol-kampir bo‘lgan ekan. Chol-kampirning birgina o‘g‘li bor ekan. Chol: «O‘g‘lim katta bo‘lsa, uni savdogarchilikka o‘rgataman», - deb bir tiyinlab pul yig‘ib yurar ekan. Yillar, oylar o‘tib bola ulg‘ayibdi. «Endi, savdoga o‘rgansin», — deb bolasiga to‘plagan, pullaridan yuz tanga beribdi.

Bola bozorga borib aylanib yursa, bir kishi bir kuchukni ushlab turgan emish. «Amaki, bu kuchugingiz qancha turadi?» - deb so‘rabdi. U kishi «yuz tanga» deb javob beribdi. Bola yuz tangani sanab berib, kuchukni olib, uyiga kelibdi. Ikkinchi kuni bozorda yana yuz tanga olib borib, bir mushuk olibdi. Uchinchi kuni bozorda bir sichqonni yuz tangaga olibdi. Otasi jahli chiqib: «Bu o‘g‘lim jinni bo‘lganmi, yig‘gan pulimni tamom qiladi, shekilli» - deb oxirgi yuz tangani bolaga beribdi. Bola bozorga borib aylanib yurib, bir nosvoy choqcha sotadigan kishining oldiga borib qolibdi. «Bu nosvoy choqchangiz qancha turadi?» - deb so‘rabdi. Sotuvchi: «Agar og‘zi ochig‘ini olsang, ellik tanga, og‘zi yopig‘ini olsang, yuz tanga», — debdi. Bola «tavakkal» deb yuz tanga berib, og‘zi yopiq nosvoy choqchani olibdi. Sotuvchi aytibdi: «Lekin o‘g‘lim, seni shoshilib, buning og‘zini yo‘lda ochib qo‘yma, uyingga borgandan keyin och! - debdi.

Bola: «Buning ichida nima bor ekan?» deb yo‘lda nosvoy choqchanning og‘zini choqqi bilan o‘yibdi. Shu vaqt nosvoy choqchanning ichidan shuv etib, bir qurt chiqibdi-da, yerga tushibdi.

Bola bechora juda qo‘rqib ketibdi. Qurt sal vaqt o‘tmay bir yumalab, bo‘yinturuqday ilonga aylanibdi. Ilon odamga o‘xshab: «Mening urug‘im nosvoy choqchaga tushib qolgan edi, men shu vaqtgacha band edim, sen meni yorug‘likka chiqarding, buning evaziga men senga ko‘p yaxshiliklar qilaman, istasang, seni o‘z elimga olib ketaman», — debdi. Bola avval ko‘nmabdi, keyin bu meni bir balo qilib qo‘ymasin deb u ilon bilan birga uning otasi — ilonlarning podshosi turadigan yerga ketishibdi. Haligi ilonning bolasi bir yumalab, bir otliq yigit bo‘libdi. Bolaga ham bir arg‘umoq ot, yaxshi kiyimlar topib beribdi. Ikki botir yo‘lga tushibdilar. Ular ko‘p yo‘l yuribdilar, yo‘l yursalar ham mo‘l yuribdilar. Oxiri ilonlarning podshosi turadigan yerga yetib kelibdilar. Bola qarasa, u yerdagi odamlar juda bahaybat, yarmisi odamga o‘xshaydi, yarmisi xuddi qo‘tosga o‘xshaydi.

Shunda bola: «Bu qanday maxluqlar?» - deb so‘rabdi. «Qo‘rqma, bizning yurtimizdagi odamlar shunaqa bo‘ladi, bular otamning fuqarosi», — debdi ilonning bolasi. Bola bir qancha vaqtlargacha shu yerda qolib ketibdi, juda ko‘p ajoyib-g‘aroyibotlarni ko‘ribdi. Shoxi bor odamlar, to‘rt boshli ajdarholar, bir chaqirim yerga soya beradigan katta qushlar, odamyutar baliqlarni ko‘ribdi.

Ko'p vaqtlar o'tgandan keyin bola yurtini sog'inib: «Endi men ketmasam, bo'lmaydi», - deb turib olibdi.

Ilonning bolasi noiloj: «Agar ketar bo'lsang, men senga bir maslahat beraman. Otam mendan: «nima talab qilasan» deb so'rasa, shunda sen: «Sening hech narsang kerak emas, menga yolg'iz gul uzukni bersang bas», de. Agar bermaydigan bo'lsa, men ham sen bilan birga ketaman», - debdi. Ilonlarning podshosi oldiga boribdilar. Shunda: «Bola, seni ketmoqchi bo'lib yurganingni eshitdik, xafa bo'ldik, mayli, seni mendan nima talabing bor, so'rayver, mening o'g'limni yorug' jahonga olib chiqqansan», — debdi.

Shunda bola: «Menga gul uzukni bersang bas, boshqa hech narsa kerak emas», - debdi. Ilonlarning podshosi: «Yo'q, inson bolasi, bu uzukni hech kimga berib bo'lmaydi», - debdi. Shunda bola: «Xayr, bo'lmasa, men ketdim», — deb chiqib ketibdi. Shu vaqt ilonning bolasi ham qayrilib uning orqasidan ketaveribdi. Podsho qarasa, o'z o'g'lidan ayriladigan. Keyin o'ylab turib: «Kel, mayli, bir umr unutmaydigan yaxshilik qilbsan, bir uzuk sendan aylansin», - deb barmog'idan uzukni chiqarib beribdi. Shunda bola ilonlar podshosining o'g'liga qarab: «Men endi buni nima qilaman», - debdi. Ilonlar podshosining o'g'li: «Sen bu uzukni mahkam saqla, bunda xosiyat ko'p: istagan yeringga olib boradi, nima kerak bo'lsa topib beradi. Bir burab, istagingni uch marta qaytarsang - aytganing bir zumda tayyor bo'ladi», - debdi.

Bola ilonlar podshosining o'g'li bilan xayrlashib, yo'lga tushibdi. Yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi-da, bir yerga boribdi. Qorni juda ham ochibdi. So'ng qo'lidagi gul uzukni burab: «Men charchadim, qornim ochdi, ovqat tayyor bo'lsin», - deb uch marta qaytaribdi-da, uyquga ketibdi. Oz uxladimi, ko'p uxladimi, ishqilib uyqusida otning kishnagan ovozi eshilibdi. Boshini ko'tarib qarasa, bir arg'umoq ot kishnab turibdi, egarlangan, egar ustida bir tovoq palov bug' chiqarib turgan emish. Bolaga ishtaha bilan palovni endigina yeb bo'lgan ekan, bir tovoqqa kosa qilingan shakardek qovun ham muhayyo bo'libdi. Bolaga maza qilib qovunni yeb, otga minib, o'z eliga qarab jo'nabdi. Yo'lda borayotib tayoq urishtirayotgan ikki cho'ponni ko'ribdi.

Shunda bola: «Sizlar nima uchun tayoq urishtirayotirsiz — deb so'rabdi.

Ular: «bu tayoqlarning xosiyati ko'p, mana bu mening qo'limdagi tayoq - ur tayoq, uning qo'lidagi tayoq - sur tayoq. Agar «ur tayoq!» desa, odamni urib o'ldiradi, agar «sur tayoq!» desa, o'lgan odamni tirgizadi», - debdi. Bola savdolashib, tayoqlarning har biriga ming tangadan berib, otning egariga qistirib olibdi. Keyin o'z yurtiga jo'nabdi. Ko'p yo'llarni bosgandan keyin o'z yurtiga yetib kelibdi. Bola yo'q bo'lib ketgandan keyin otasi hasratda. o'lib ketibdi, onasi charx yigirib zo'rg'a kunini o'tkazib yurgan ekan.

Bola uy-joyini tuzatibdi, kampirga yaxshi kiyimlar olib beribdi.

Kunlardan bir kun bola onasiga aytibdi: «Ena, siz podshoning saroyiga boring, podshoning qizini xotinlikka olishim kerak, bermaganiga qo'ymaymiz», - debdi.

Kampir har kuni ertalab borib, podsho saroyining darvozasini supurar ekan.

Buni hech kim ko'rmabdi. Podsho bir kuni poyloqchi qo'yibdi. Kampir kallayi. saharda kelib, podsho saroyining oldini supurib turganda, qorovullar kampirni ushlab olib, podshoning oldiga olib boribdilar. Podsho voqeani anglab:

«Sen kampir bir kambag'al odamsan, qanday qilib mening qizimni olasan», - deb g'azab qilibdi. Keyin kampirni eshakka ters mindirib, mahkam bog'lab, haydab yuboribdi. Eshak yo'lda o'tlab, suv ichib, peshin vaqtlarda uyiga yetib boribdi. Bola onasini darrov eshakdan tushiribdi, qo'l-oyoqlarini yechibdi. Shunday bo'lsa ham, ertasi kuni onasini yana yuboribdi. Onasi: «Bolam, endi borsam, meni mut o'ldiradilar, o'z ko'rpangga qarab oyoq uzatsang-chi, bolam!» — debdi kampir zor tavallo qilib.

Bola unamabdi: «Qo'rqmang ena, sizni o'ldirolmaydi», - debdi. Kampir borgan ekan, qorovullar uni yana ushlabdi. Podsho: «Bu ahmoq kampirni o'ldirib, eshagiga yuklab yuboringlar!» — deb buyruq beribdi.

Qorovullar kampir bechorani tayoq bilan urib o'ldirib, eshagiga tang'ib, jo'natibdilar. Kampirning eshagi yo'lda suv ichib, o'tlab kelaveribdi, yarim kechada uyiga yetib kelibdi. Bola qarasa, onasining o'ligi eshakka ortilgan, darrov chilvirni yechib, onasini eshakdan tushirib, uyga olib kiribdi, shu vaqt cho'ponlardan olgan tayoqlari esiga tushibdi. Sur tayoqni olib, onasini boplab bir-ikki tayoq uribdi. Shu vaqt onasiga jon kirganday bo'libdi. Yana bir uribdi, onasi tuzalib ketibdi. Ertasi kuni onasini yana podshoning saroyiga yuboribdi.

Shunda podshoning jahli chiqib: «Kecha bu jodugar o'ldirilgan edi, yana qanday qilib tirilib kelibdi?» - deb hayron bo'libdi. Podshoning bir aqilli vaziri bor ekan, shu vaziri: «Podshohim, siz qizingizni shu bolaga berishga rozi bo'ling, lekin shunday shart qo'ying: kun chiqish tomonda bir cho'l bor, shu cho'lni bola guliston qilsin, qirq qavatli imorat solsin, to'rt yuzta gujum hamma yoqqa soya solib tursin!» - debdi.

Shunda podsho bu talablarni kampirga aytibdi. Kampir uyiga kelib, bo'lgan voqeani bolasiga gapirib beribdi. Bola o'ylab qolibdi. Keyin yotib sahar vaqtida turibdi-da, gul uzukni barmog'iga solib, uni burab-burab: «Kun chiqish tomonda bir cho'l bor, shu cho'lni guliston qil, qirq qavatli imorat sol, bog'rog' yaratib, unda to'rt yuzta gujum o'sdirasan, daraxtlari mevasining ko'pligidan egilib tursin!» - deb uch marta qaytaribdi. Ertasi kuni azon paytida podsho shahar chetiga chiqqan ekan, qarasa, sharqdan ham, g'arbdan ham kun chiqib turgan emish. Podsho vaziri bilan ikkisi g'arb tomonga qarab yurishibdi. Borib qarasar, podshoning kecha aytgan talablari ortig'i bilan bajarilibdi. Axiyri «o'z so'zida turmagan nomard», - deb podsho to'y-tomosha qilib, qizini haligi yigitga nikohlab beribdi.

Bir kuni podsho qizini chaqirtiribdi: «Yigit to'g'risida bilganlaringni ayt, uning nimalari bor?» — deb so'rabdi. Shunda podshoning qizi: «Agar aytsam, u meni o'ldiradi», - debdi. Podsho «Sen qo'rqma, u seni o'ldirolmaydi, - deb qizini aldabdi. Shunda qizi: «Uning gul uzuk degan bir uzugi bor, kechasi yostig'ining tagiga qo'yib yotadi, kunduzi tilining tagida bo'ladi», - debdi.

Podsho o‘ylab qolibdi. Keyin: «Sen shu uzukni menga olib ber, men ertaga ikki kishini sening oldingga yuboraman», - debdi. Qiz ko‘nibdi. Kech tushgandan keyin yigit gul uzukni til ostidan olib, yostig‘ining ostiga qo‘yibdi-da, o‘zi uyquga ketibdi. Qiz sekin gul uzukni olib, tashqari chiqibdi va podshoning odamlariga uzukni berib yuboribdi.

Podsho uzukni qo‘liga olib, burab-burab: «Sen shu yigitni yetti dengizning narigi tomoniga o‘tqazib tashla!» - debdi.

Yigit erta bilan uyg‘onib qarasa, to‘rt tomoni ham suv, yetti dengizning narigi tomonida yotgan emish. Endi so‘zni mushuk-kuchuk va sichqondan eshitib.

Bir kuni it, mushuk va sichqon uchalasi majlis quribdi: «Bola har birimizni yuz tangadan berib sotib olgan edi, boqdi, o‘stirdi. Biz yigitning mana shu yaxshiligi uchun unga bir xizmat qilaylik, uning uzugini olib kelib beraylik» degan qarorga kelishibdi-da, podshoning saroyiga qarab ketishibdi. It saroyning darvozasi oldida qolibdi, sichqon bilan mushuk ichkari kiribdi. Podsho qirq qavatli uyning qirqinchi qavatida turar ekan. Mushuk bilan sichqon asta-sekin podshoning yotog‘iga kirishibdi. Podsho yonboshlab, par yostiqlarga suyanib o‘tirgan ekan. U mushukni ko‘rib: «Qani, moshshi, mening oldimga kel- chi!» - debdi. Mushuk erkalanib, podshoning oldiga borib, tizzasiga chiqib olibdi. Podsho nos chekibdi-da, mushukni silab yotib uxlab qolibdi. Shunda mushuk sichqonga imlab, nos choqchani yumalatib, yostiqning ustiga bir oz nos to‘kibdi, sichqon kelib, haligi nosni dumi bilan podshoning burniga tiqibdi. Shu vaqt podsho aksa urib yuboribdi. Og‘zidan gul uzuk tushib ketibdi. Mushuk darrov gul uzukni olib qochibdi. Yana uchalasi birlashib yigitni qidirib, «Yetti dengizning orqasi qayoqdasan!» - deb ketaveribdi. Oxiri dengiz bo‘yiga yetibdilar. «Gul uzukni kim olib o‘tadi?» - deb janjallashibdilar. Oxiri it zo‘r chiqibdi. Bular yetti dengizdan o‘tib, bir kichik anhor qolgan ekan, o‘tayotganlarida uzuk itning og‘zidan tushib ketibdi. Uchalasi xafa bo‘lishib, yig‘lashib-siqdashib, bir-birlarining ustlariga ayb qo‘yishib, yigitning oldiga borishibdi, bo‘lgan voqeani aytib berishibdi. Yigit: «Xafa bo‘lmanglar, hammasini to‘g‘rilaymiz», — deb ularga tasalli beribdi. Bir kun ularning yemoqqa ovqatlari qolmabdi. Maslahat qilishib, shu yerdagi dengizdan baliq tutamiz, deb yo‘lga tushibdilar. Dengizning qirg‘og‘iga borib qarasar, baliqchilar baliq tutib yurgan ekanlar. Shunda baliqchilarning kattasi: «Yaxshi yigit, mana biz hozir tashlaymiz - nimaiki tushsa, baxtingdan ko‘r, to‘rga tushgani seniki», - debdi. To‘rni olib qarasar, katta bir baliq tushibdi. Bular baliqni olib kelib, qornini yorsalar, ichida gul uzuk chiqibdi. Gul uzuk suvga tushganda, baliq uni yutib yuborgan ekan. Hammasi juda quvonib, suyunib, baliqni pishirib yemoqni ham esdan chiqaribdilar. Yigit qah-qahlab kulibdi, it osmonga qarab huribdi,

mushuk miyovlabdi, sichqon chiyillabdi. Yigit gul uzukni barmog'iga solib, burab: «Bizni falon podshoning yurtiga olib borib tashlaysan», — debdi. Podshoning o'zini mana shu yerga, biz turgan yerga keltirib tashlaysan!» — debdi. «Qizini qoldirasan, meni o'sha yurtga podsho qilasan!» - debdi-da, o'zi uyquga ketibdi. O'rnidan turib qarasa, podshoning saroyida taxt ustida yotgan emish. Yigit podsho bo'lib, Buxoro podshosining qizini xotinlikka olib, onasini bir yoniga, xotinini bir yoniga o'tqazib, murod-maqsadiga yetibdi.

“Oqila qiz” kitobidan